

**BOSHLANG'ICH SINF MUSIQA DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLI  
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK  
SHART-SHAROITLARI**

**Bekbauliyeva Feruza Majit qizi**

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

"Musiq ta'limi" bakalavriat 2-bosqichi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21384866>

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida musiqa madaniyati fanini o'qitish sifatini oshirishda didaktik o'yinli texnologiyalarning o'rni va ahamiyati keng ma'noda tahlil etilgan. Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining psixologik, fiziologik va kognitiv rivojlanish xususiyatlari inobatga olingan holda, musiqiy tafakkur, eshitish qobiliyati, ritmika va kreativlikni shakllantiruvchi o'yinlarning metodologik asoslari yoritilgan.

Tadqiqotda didaktik o'yinlarni dars jarayoniga tizimli tatbiq etishning majburiy pedagogik shart-sharoitlari, mezonlari va ularning dars samaradorligini oshirishdagi ko'rsatkichlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan, amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** musiqa pedagogikasi, boshlang'ich ta'lim, didaktik o'yin, pedagogik shart-sharoit, kognitiv rivojlanish, musiqiy idrok, ritmika, sinkretizm, milliy folklor, faol ta'lim muhiti.

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ДИДАКТИЧЕСКИХ  
ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ МУЗЫКИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ**

**Аннотация.** В данной научной статье широко проанализированы роль и значение дидактических игровых технологий в повышении качества преподавания предмета "Музыкальная культура" в начальных классах общеобразовательных школ. Освещены методологические основы игр, формирующих музыкальное мышление, слух, ритмику и креативность с учетом особенностей психологического, физиологического и когнитивного развития младших школьников.

В исследовании научно обоснованы обязательные педагогические условия, критерии системного внедрения дидактических игр в учебный процесс и их показатели повышения эффективности урока, разработаны практические рекомендации.

**Ключевые слова:** музыкальная педагогика, начальное образование, дидактическая игра, педагогические условия, когнитивное развитие, музыкальное восприятие, ритмика, синкретизм, национальный фольклор, активная образовательная среда.

**PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR USING DIDACTIC GAME TECHNOLOGIES IN  
MUSIC LESSONS IN PRIMARY SCHOOLS**

**Abstract.** This scientific article extensively analyzes the role and significance of didactic game technologies in improving the quality of teaching the subject of "Music Culture" in primary school grades. The methodological foundations of games that form musical thinking, hearing, rhythm, and creativity are highlighted, taking into account the characteristics of psychological, physiological, and cognitive development in primary school students. The study scientifically substantiates the mandatory pedagogical conditions, criteria for the systematic implementation of

*didactic games in the educational process, and their indicators for increasing lesson effectiveness, and develops practical recommendations.*

**Keywords:** *musical pedagogy, primary education, didactic game, pedagogical conditions, cognitive development, musical perception, rhythmic, syncretism, national folklore, active educational environment.*

Bugungi kunda zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri — o'sib kelayotgan yosh avlodga nafaqat tayyor bilimlarni berish, balki ularda mustaqil, kreativ va tanqidiy tafakkurni shakllantirishdan iboratdir. Xususan, boshlang'ich sinf ta'limi mazkur jarayonning poydevori hisoblanadi. Musiqa madaniyati fani esa boshlang'ich sinf o'quvchilarining hissiy-estetik dunyosini boyitish, ularning ijodiy salohiyatini uyg'otish va shaxs sifatida garmonik rivojlanishida beqiyos ahamiyatga ega.

Lekin, an'anaviy musiqa ta'limida ko'p hollarda quruq nazariy ma'lumotlar berish, nota savodini majburiy yodlatish yoki faqatgina bir xil qolipdagi kuylash mashg'ulotlari ustuvorlik qiladi. Bu esa 6-10 yoshli bolalarning tabiatiga ziddir. Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining diqqati beqaror bo'lib, ular atrof-muhitni ko'proq hissiyotlar, harakatlar va obrazlar orqali idrok etadilar. Bu davrda bolaning yetakchi faoliyati o'yin vositasida dunyoni anglashdan tizimli o'qish faoliyatiga o'tish bosqichida bo'ladi. Bolalikning ushbu nozik o'tish davrida ta'lim va o'yin faoliyatini uyg'unlashtirish — didaktik o'yinli texnologiyalarni darsga olib kirishni taqozo etadi.

Maqolaning maqsadi — boshlang'ich sinf musiqa darslarida didaktik o'yinlardan foydalanishning eng samarali pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash va tizimlashtirishdan iborat.

Didaktik o'yinlarning ta'lim tizimidagi ahamiyati uzoq tarixga ega. Buyuk pedagog Ya.A.Komenskiy o'z asarlarida ta'lim bola uchun og'ir majburiyat emas, balki quvonchli jarayon bo'lishi kerakligini va bunga o'yinlar orqali erishish mumkinligini ta'kidlagan. XX asr musiqa pedagogikasining jahon tan olgan namoyandalari Karl Orf (Germaniya) va Zoltan Koday (Vengriya) o'z konsepsiyalarini bolalarning tabiiy harakati, nutqi va musiqiy o'yinlari sinkretizmiga (uyg'unligiga) asoslaganlar. K.Orfning "Shulverk" (Elementar musiqa tarbiyasi) tizimi bolani musiqani shunchaki tinglovchi emas, balki uning ichida o'yin va ijod orqali yashovchi faol ishtirokchiga aylantiradi.

O'zbekiston musiqa pedagogikasi olimlaridan O.Ibrohimov, D.Omonullayeva, K.Mamirov va J.Hasanboyevlar o'z ilmiy ishlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqiy tafakkurini rivojlantirishda faol metodlardan foydalanish masalasini tadqiq etganlar. Ular milliy musiqa merosi va bolalar folklorining ta'limiy kuchini yuqori baholashgan. Biroq, bugungi kundagi raqamli avlod (Alfa avlodi) psixologiyasi va umumiy o'rta ta'limdagi Milliy o'quv dasturi talablari doirasida didaktik o'yinli texnologiyalarni qo'llashning aniq pedagogik-psixologik shart-sharoitlari majmuasini yaxlit tizimga solish dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

Ushbu ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda tizimlilik, qiyosiy mantiqiy tahlil, pedagogik kuzatuv, pedagogik eksperiment va interfaol metodlarni modellashtirish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida boshlang'ich sinf (1-4 sinflar) musiqa madaniyati darsliklari mazmuni, dars jarayonida bolalarning musiqiy elementlarni (dinamika, tembr, ritm, temp) o'zlashtirish darajasi kuzatildi va didaktik o'yinlarning ta'sirchanlik mezonlari ishlab chiqildi.

Olib borilgan kuzatuvlar va pedagogik tahlillar shuni ko'rsatdiki, musiqa darslarida didaktik o'yinlarni shunchaki mashg'ulot o'rtasidagi qisqa tanaffus yoki chalg'ish usuli sifatida qo'llash kutilgan ta'limiy natijani bermaydi. Didaktik o'yin — bu qat'iy maqsadga yo'naltirilgan pedagogik vositadir. Uning dars jarayonida muvaffaqiyatli ishlashi va yuqori natija berishi uchun quyidagi keng qamrovli pedagogik shart-sharoitlar ta'minlanishi majburiydir:

1. Psixofiziologik va yosh xususiyatlariga muvofiqlik sharti

Bolalarning yoshi ulg'aygan sari didaktik o'yinlarning xarakteri va murakkablik darajasi o'zgarib borishi kerak.

1-2 sinflarda: Oliy asab faoliyati hali to'liq shakllanib ulgurmagan, ixtiyoriy diqqat muddati qisqa (10-15 daqiqa). Bu yerda ko'proq harakatli va syujetli-rolli o'yinlar qo'llaniladi.

Bolalar tana harakatlari orqali musiqani his qilishlari kerak. Misol: "Ovchi va qushlar" o'yini. Musiqa baland va tez chalinganda "qushlar" (bolalar) uchadi, musiqa past va vahimali ohangga o'tganda (ovchi kelganda) ular joylarida to'xtab, tembr o'zgarishini harakatda ifodalaydilar.

3-4 sinflarda: Bolalarda mantiqiy fikrlash va tahlil qilish qobiliyati rivojlanadi. Endi o'yinlar mazmunan murakkablashib, intellektual-musiqiy musobaqalar, topishmoqlar va ijodiy loyihalar shakliga o'tadi.

2. Maqsadli yo'naltirilganlik va didaktik tizimlilik

O'yin dars mavzusi bilan sun'iy emas, balki mantiqiy jihatdan uzviy bog'langan bo'lishi shart. O'yin shunchaki vaqtni band qilish uchun emas, balki muayyan musiqiy ko'nikmani shakllantirishga xizmat qilishi lozim. Biz o'tkazgan tadqiqotlar asosida musiqa darslaridagi didaktik o'yinlarni uchta yirik guruhga ajratib tizimlashtirdik:

**Didaktik o'yinlar turkumi Shakllanadigan musiqiy ko'nikmalari, bunda:**

1. Sensor va akustik o'yinlar (Eshitish va farqlashni rivojlantiruvchi) "Sehrli sandiqcha" (cholg'ular tembrini topish), "Baland-past" (tovush balandligini aniqlash) Musiqiy-eshitish qobiliyati, lad va tembr tuyg'usi.

2. Ritmik va harakatli o'yinlar (Tana va ijro uyg'unligi) "Ritmik zanjir" (qarsaklar bilan ritmni takrorlash), "Aks-sado" (o'qituvchi ortidan kuylash) Ritm tuyg'usi, harakatlar koordinatsiyasi, vokal malakasi.

3. Intellektual va kreativ o'yinlar (Ijodiy va mantiqiy) "Musiqiy krossvord", "Kuy tarixiga sayohat" (didaktik ertaklar), "O'zing kuy bastala" Musiqiy tafakkur, nota savodi, kreativlik.

Milliy-madaniy qadriyatlar va folklor integratsiyasi asosida ta'limning milliylik prinsipi o'quvchi qalbida o'z vataniga va madaniyatiga nisbatan faxr tuyg'usini uyg'otadi. O'zbek, qoraqalpoq xalq bolalar ijodiyoti (o'yin qo'shiqlari) o'zida ham harakatni, ham so'zni, ham kuyni mujassam etgani uchun boshlang'ich sinf bolasiga juda yaqindir.

Darslarga "Boychechak", "Chitti gul", "Oq kerakmi, ko'k terak", "Qaldirg'och", "Tulkishek", "Awelemen-duwelemen", "Hakke qayda" kabi milliy o'yin-qo'shiqlarni olib kirish

orqali bolalarda nafaqat musiqiy o'lchov (ritm), balki milliy intonatsiyalarga nisbatan ichki sezish qobiliyati tarbiyalanadi.

Faol va xavfsiz psixologik muhit (Sinf xonasini erkinlashtirish), An'anaviy partalarda qimirlamay o'tirish tizimi didaktik o'yin texnologiyalarining samaradorligini oshirishga salbiy tasirini tiygizadi.

Shart-sharoit: Bolalarning erkin harakatlanishi, davra qurib o'tirishi yoki kichik guruhlariga bo'linib ishlashi uchun sinf xonasida texnik imkoniyat yaratilishi lozim. Eng muhimi — psixologik xavfsizlik. O'yinda xato qilgan yoki kuyni to'g'ri topa olmagan o'quvchi kamsitilmasligi, balki o'yin qoidasiga ko'ra rag'batlantirilib, keyingi bosqichga tayyorlanishi kerak. O'qituvchi bu jarayonda "nazoratchi" emas, balki o'yinning faol ishtirokchisi-"yetakchi sherik" sifatida namoyon bo'ladi.

Musiqqa darsida didaktik o'yinning muvaffaqiyatli kechishi va bola ongiga ta'siri quyidagi zanjirsimon matematik-didaktik logika asosida rivojlanadi:

- Ehtiyoj (O'yinga intilish)
- Pedagogik shart-sharoit
- Musiqiy faoliyat
- Estetik Natija

Bu modelda agar pedagogik shart-sharoit (xona, cholg'ular, metod) to'g'ri bajarilsa, musiqiy faoliyat bevosita estetik natijaga — bilimning mustahkam o'zlashtirilishiga olib keladi.

Tadqiqotimiz natijalarini amaliyotga tatbiq etish jarayonida aniqlandiki, didaktik o'yinli texnologiyalardan foydalanilgan sinflarda o'quvchilarning darsni o'zlashtirish va musiqiy atamalarni xotirada saqlab qolish ko'rsatkichi an'anaviy sinflarga qaraganda sezilarli darajada yuqoridir.

Masalan, an'anaviy usulda nota yo'llari va tovushlarning baland-pastligini o'rganish bolalar uchun zerikarli tuyulsa, uni "Notalar mehmonxonasi" nomli didaktik ertak va didaktik o'yin shaklida o'tilganda, bolalar qaysi nota qaysi chiziqli yashashini vizual va eshitish (akustik) orqali tezroq o'zlashtiradilar. Biroq munozarali jihat shundaki, ba'zi pedagoglar darsda o'yinga haddan tashqari berilib ketish natijasida darsning akademik va ta'limiy maqsadini yo'qotib qo'yadilar va dars oddiy ko'ngilochar soatga aylanib qoladi. Shu bois, o'yin va ta'lim vaqtining oltin mutanosibligini (balansini) saqlash o'qituvchining yuqori pedagogik mahoratini talab etadi.

Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, boshlang'ich sinf musiqqa darslarida didaktik o'yinli texnologiyalardan foydalanish — bu ta'limni zamonaviylashtirish va bola shaxsiga yo'naltirishning eng maqbul yo'lidir. Bu texnologiya bolalarda musiqaga nisbatan ijobiy motivatsiyani uyg'otadi, ularning ijodiy qiziqishlarini faollashtiradi. Didaktik o'yinlar kutilgan natijani berishi uchun ular tizimli, bola yoshiga mos, milliy mazmunga boy va erkin psixologik muhitda tashkil etilishi kerak.

**Vaqt taqsimoti:** Musiqqa darsining nazariy qismini (tushuntirishni) qisqa va lo'nda-10-12 daqiqa ichida tugatib, qolgan vaqtni o'yinli-amaliy va ijodiy faoliyatlarga ajratish maqsadga muvofiq.

**-Shovqinli cholg'ular:** Har bir maktabning musiqa xonasida K.Orf tizimiga mos keladigan oddiy, bolalar tez o'rgana oladigan milliy va xorijiy shovqinli cholg'u asboblari (doyrachalar, qoshiqlar, uchburchaklar, marakaslar, tayoqchalar) bo'lishi va ular didaktik o'yinlarning ajralmas qismiga aylanishi lozim.

**Metodik ta'minot:** Boshlang'ich sinf musiqa o'qituvchilari uchun "Musiqa darslarida 100 ta didaktik o'yin" nomli metodik qo'llanmalar va raqamli (multimediali) o'yin dasturlari bazasini yaratish hamda ularni muntazam yangilab borish zarur.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ibrohimov O. "Musiqa vositasida o'quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirish" — Toshkent: O'qituvchi, 2018.
2. Omonullayeva D. "Boshlang'ich sinflarda musiqa o'qitishning innovatsion metodikasi" — Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
3. Orf K. "Shulverk. Muzika dlya detey" (perevod i adaptatsiya) — Moskva: Muzika, 2015.
4. Sharmel R. "Muzikalnoye vospitaniye v nachalnoy shkole: metodi i igri" — Sankt-Peterburg: Rech, 2019.
5. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. Musiqa madaniyati fani bo'yicha Milliy o'quv dasturi (1-4 sinflar) — Toshkent, 2023.
6. A.Omarova. *Maktablarda musiqa darslarida xorijiy ta'lim texnologiyalarini qo'llash usullari*. International scientific journal «MODERN SCIENCE AND RESEARCH» VOLUME 4/ISSUE 9 / UIF:8.2 / MODERNSCIENCE.UZ.
7. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17069518>
8. A.Omarova. *Baslawish klaslarda muzika sabağında 4 K modeline bağdarlawshı interaktiv metodlardı qollanıw usılları*. New Renaissance international scientific journal Research Bib IF-2023:11.01/ISSN: 3030-3753/Volume 2Issue 4  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15204878>